

QARDOSH BO'LMAGAN (INGLIZ VA O'ZBEK) TILLARDA KIYIM KOMPONENTLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TAHLILI

Yadigarova Sitora Bahramovna

Termiz davlat pedagogika institute

Xorijiy tillar nazariyasi va metodikasi kafedrası o'qituvchisi

Email: aminayadigarova@gmail.com

Tel raqami: +998997105224

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10315343>

Annotatsiya: Ushbu maqolada frazeologiya haqida umumiy va nazariy ma'lumotlar, jahon olimlarining frazeologiya haqida nazariy ma'lumotlar berib o'tilgan. Chog'ishtirilayotgan tillarida (ingliz va o'zbek) kiyim komponentli frazeologik birliklarning leksik-semantikasi, ularning o'xshash va farqli tomonlari tahlili berilgan. Frazeologik birliklar xalqning turmush tarzi, kelib chiqish tarixi, ularning universal va milliy qadriyatlaridan kelib chiqqan holda o'xshash va farqli tomonlari berilgan.

Kalit so'zlar: frazeologiya, chog'ishtiralaotgan tillar, leksik-semantik tahlil, universal, milliy qadriyat.

Jahon tilshunosligida mavjud bo'lgan tillarning tarkibiy qismi bo'lgan frazeologik birliklarni tavsifiy, qiyosiy-tarixiy, chog'ishtirish va tipologik, deskriptiv va distributiv kabi turli metodlar asosida tahlil etish muammosi o'z dolzarbligini saqlab turibdi.¹ Bugungi kun tilshunosligining ushbu xususiyati frazeologik birliklar ifodalaydigan ma'nolarning borliqdagi voqea hodisalarning u yoki bu qirrasini ochishga xizmat qilishlari bilan izohlanadi. O'zbek va ingliz xalqlarining xazinalaridan biri bo'lgan milliy-madaniy qadriyatlar, urf-odatlarini aks ettirgan frazeologik birliklarni tadqiq etish muhim masalalardan biridir. Dunyo tilshunosligida tillarning frazeologik birlik qatlamini tizimli o'rganish ya'ni semantik, sintaktik, stilistik jihatlaridan o'rganish jadal rivojlanmoqda. O'zbek tilining lug'at boyligining ma'lum bir qismini ham til qonuniyatlariga moslashib, inson hayotining barcha sohalarini qamrab oluvchi frazeologik birliklar tashkil etadi. Ikki va undan ortiq so'zlar bir necha yo'l bilan birga kelishidan hosil bo'lgan, ma'lum bir ko'chma ma'no ifodalaydigan, nutqda foydalanilganda nutqiy hamda hissiy ta'sirchanlikka va bo'yoqdorlikka ega bo'lgan, ifodalagan ma'nosi bir so'zga teng bo'lgan so'zlar yig'indisi yoki gaplarga ibora deyiladi. Bundan tashqari tilshunoslikning frazeologiya bo'limi shu sohaning taraqqiyoti, frazeologiya sohasiga muhim hissa qo'shgan tilshunos olimlar, frazeologik ma'no, frazeologik polisemiya, qarama qarshi ma'noli iboralar, iboralar sinonimiyasi, frazeologik paronimiya va paraforma, iboralar omonimiyasi, iboralar variatsiyasi, frazeologizmlarning o'ziga xos grammatik xususiyatlari va boshqalar o'rganiladi.

Yevropa lingvistlaridan Sharl Balli o'zining "Precis de stylistique" asarida so'z birikmalarining to'rt turini farqlagan:

1. frazeologik birliklar (o'z ma'nosini tamomila yo'qotgan, komponentlari tartibi qat'iy bo'lgan birliklarni kiritadi);
2. frazeologik qatorlar (ikki va undan ortiq birliklar birikib yaxlit bir ma'no ifodalab keladi, ammo uning komponentlari tartibiga o'zgartirishlar kiritish mumkin);

¹ Bahriddinova Yu.B. "Ingliz va o'zbek tillaridagi fitonim komponentli frazeologik birliklarining chog'ishtirma tadqiqi" monografiya ISBN: 978-9943-8892-3-0 TerDU NMM nashriyoti, 2022-10-b.

3. odatiy birikmalar (nisbatan erkin bog'langan birikmalar bo'lib tarkibiga ba'zi o'zgartirishlar kiritish mumkin);

4. erkin birikmalar (o'z ma'nosida qo'llaniladigan birikmalar);²

Uning "Fransuz stilistikasi" asarida erkin birikmalar va frazeologik birlik-larning tarkibiy qismini odatiy birikmalar va frazeologik qatorlar tashkil qilishini tahlil qilgan.

Frazeologik birlashmalar ma'lum darajada semantik jihat bo'linmasidir. Frazeologik birlashmalar ma'nosi qisman o'zgargan so'zlar birikmadir. Frazeologiyaning alohida fan sifatida rivojlanishi tilshunoslik tarixida bir nechta bosqichlarni bosib o'tgan.³

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga qo'shimcha ravishda quyidagi ingliz tilidagi kiyim komponentli iboralarni tahlil qilishimiz mumkin: *coat* bilan berilgan iborani olib tahlil qiladigan bo'lsak ikki tilda turli xil ma'nolarni anglatadi. Masalan: *coat hanger* – odamning yelkasining konturiga o'xshash va ustiga kiyim osib qo'yilishi mumkin bo'lgan qurilma kiyim ilgich; *car coat* – mashina chixoli, *coat-check/hat check girl* – garderobda ishlaydigan xodim, *coat check* –garderob;⁴ *jacket potato* –po'sti bilan pishirilgan kartoshka; *dust jacket* –qog'oz muqovali kitob; *life jacket* – qutqaruvchi jeletka; *sweater girl* – go'zal qomatga ega ayol ma'nolarini ifodalaydi.

va o'zbek tilidagi kiyim komponentli iboralarga esa quyidagila. Masalan: *Do'ppi tor keldi*. Mumkin bo'lmagan vaziyatga tushib qolish. Varianti: *do'ppi(si) tor keldi*. *Do'ppi(si)ni osmonga tashlamoq*, *do'ppi(si)ni osmonga otmoq* – xursandchilik ma'nosini ifodalaydi. *Do'ppi (si)ni yarimta qilib (o'zining)*. G'am yemasdan, shod-xurram bo'lib, yallo kilib. Varianti: *do'ppini yarimta qilib*; "*Bo'rk ol*", - desa bosh olmoq, pashshadan fil yasamoq polisiyaning suygan metodi.⁵

Yuqoridagi misollar o'zbek tilidagi *do'ppi* bosh kiyimi bilan keladigan iboralar qatoriga kiradi. Ingliz tilida asosan bowler, bonnet bosh kiyim nomlari bilan keladi. Masalan: *spin bowler*-a bowler who throws the ball so that it spins in the cricket/kriketda to'p irg'ituvchi o'yinchi; *bee in one's bonnet, have a bee in one's bonnet* – idiom to talk and think a lot about something/biror narsa haqida ko'p gapirish va o'ylash, *scotch bonnet* – small roundish very hot chili pepper especially of the Caribbean that is usually red or yellow when mature/ kichik dumaloq juda achchiq qalampir, Karib dengizi tarafida o'sadigan, odatda pishib bo'lganda qizil yoki sariq rangga ega.⁶

Yeng uchida, yeng ichida – jiddiy kirishmaslik bu ibora antonym quyidagicha berilgan *yeng shimarib, yeng shimarmoq* – astoydil, jiddiy ravishda, biror yumushni bajarishga taxt bo'lmoq, biror ishni qilishga o'tlanmoq.⁷ *Yoqa(si)ni ushlamoq kim (o'zining)*, *yoqa(si)ni ushlatmoq nima kimni (o'zining)* – nihoyat darajada ajablanmoq (ikkinchi variant juda oz ishlatiladi). Sinonimi: hayratda qolmoq, hayratda qoldirmoq. O'xshashi: hayron qolmoq. *To'n(i)ni teskari kiyib olmoq*

²Балли Ш .Precis de stylistique.-Geneva, 1905.-P 65. https://studopedia.ru/10_271888_balli-Bally-sharl--.html

³ Юлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографиясининг шаклланиши ҳамда тараққиёти. Монография– Самарқанд: СамДУ нашри, 2007. – Б 108.

⁴ https://www.merriam-webster.com/dictionary/bowler_bonnet#related-phrases

⁵Shavkat Rahmatullayev "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" Universitetlar va pedagogika institutlarining studentlari uchun qo'llanma "O'qituvchi" nashriyoti Toshkent. 1978-77,205-b.

⁶ https://www.merriam-webster.com/dictionary/bowler_bonnet#related-phrases

⁷Shavkat Rahmatullayev "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" Universitetlar va pedagogika institutlarining studentlari uchun qo'llanma "O'qituvchi" nashriyoti Toshkent. 1978-79,86-b.

(o'zining). O'chakishgan holda qaysarlik qilmoq. Varianti: *teri to'n(i)ni ters kiyib olmoq* (oz ishlatiladi). Uxshashi; *ikki oyog'(i)ni bir etikka suqmoq; oyog' (i)ni tirab olmoq* kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, ikki xalqning frazeologik birliklari bir-biridan farq qiladi. Chunki bu ikki etnosning kelib chiqish, yashash tarzi, ularning madaniyati, urf-odatlar, milliy qadriyatlari turlichaligi bilan bir-biridan farq qiladi.

References:

1. Bahriddinova Yu.B. "Ingliz va o'zbek tillaridagi fitonim komponentli frazeologik birliklarining chog'ishtirma tadqiqi" monografiya ISBN: 978-9943-8892-3-0 TerDU NMM nashriyoti, 2022-102b.
2. Балли Ш .Precis de stylistique.-Geneva, 1905.-P 65.
https://studopedia.ru/10_271888_balli-Bally-sharl--.html
3. Юлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографиясининг шаклланиши ҳамда тараққиёти. Монография– Самарқанд: СамДУ нашри, 2007. – Б 108.
4. <https://www.merriam-webster.com/dictionary/bowler,bonnet#related-phrases>
5. Shavkat Rahmatullayev "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" Universitetlar va pedagogika institutlarining studentlari uchun qo'llanma "O'qituvchi" nashriyoti Toshkent. 1978-77,205-b.
6. <https://www.merriam-webster.com/dictionary/bowler,bonnet#related-phrases>
7. Shavkat Rahmatullayev "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" Universitetlar va pedagogika institutlarining studentlari uchun qo'llanma "O'qituvchi" nashriyoti Toshkent. 1978-79,86-b.
8. Bahromovna, y. S. (2021). Thematic division of clothing names in english and uzbek. European journal of innovation in nonformal education, 1(2), 61–62. Retrieved from <https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/41>
9. Yadigarova.S. (2023). Kiyim Nomlarining Ingliz Tilshunosligida O'rganilishi.
10. Khudayberdievich m.m. (2023). The concepts of text and discourse in linguistics. Journal of advanced linguistic studies.
11. Jurabekova madinabonu. (2023). Vocabulary description of the semantic field "emotional states, feelings". Best journal of innovation in science, research and development, 2(11), 406–409. Retrieved from <https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/876>
12. Jurabekova madinabonu. (2023). Semantic field "emotional states and feelings" in english and russian phraseosphere. Best journal of innovation in science, research and development, 2(11), 371–375. Retrieved from <https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/869>
13. Qulmamatova muattar otobek qizi. (2023). Translation problems of medical terms. International journal of advanced research in education, technology and management, 2(4), 39–46. <http://www.sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/526>
14. Muxlisa, E., & Oysuluv, U. (2022). Maqol va matallarning chog'ishtirma tadqiqi. Ijtimoiy Fanlarda Innovasiya Onlayn Ilmiy Jurnal, 2(2), 102–107. Retrieved From [Http://Sciencebox.Uz/Index.Php/Jis/Article/View/1331](http://Sciencebox.Uz/Index.Php/Jis/Article/View/1331)
15. Nilufar, X. (2022). Comprehension Strategies Of English Language Learners In Reading. International Journal Of Inclusive And Sustainable Education, 1(5), 7-9.